



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/TPCV4013
ALEKSANDR BOROVKOV – ALISHER NAVOIY TADQIQOTCHISI SIFATIDA

Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b., Alisher Navoiy
 nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

irodaishonxanova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-1761-8408

Annotatsiya

O'zbek mumtoz adabiyoti ko'p yillik tarixga ega. Bir necha asrdan beri Sharq adabiyoti namunalari ilmiy tadqiqot obyekti bo'lib kelmoqda. Xususan, shoir va faylasuf Alisher Navoiy shaxsiyati dunyo miqyosidagi olimlarni o'ziga jalb etadi. Ijodkor va uning asarlariga :r tadqiqotlarga har :m talab bor. Ayniqsa, rus adabiyotshunoslari bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini faol olib borganlar. Maqolada turkiyshunos olim Aleksandr Konstantinovich Borovkovning ilmiy maqolalari borasida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Bobur, Mirxond, Borovkov, Bartold, Nikitskiy, Bloche, Belen.

Аннотация

Узбекская классическая литература имеет давнюю историю. На протяжении нескольких столетий образцы восточной литературы являются объектом научного исследования. В частности, личность поэта и философа Алишера Навои привлекает внимание ученых мирового уровня. Всегда существует спрос на исследования, посвященные творцу и его творениям. В частности, российские литературоведы активно вели научные исследования в этом направлении. В статье рассматриваются научные статьи тюрколога Александра Константиновича Боровкова.

Ключевые слова: Алишер Навои, Бабур, Мирханд, Боровков, Бартольд, Никитский, Блоше, Белен.

Abstrakt

Uzbek classical literature has a long history. For several centuries, samples of Oriental literature have been the object of scientific research. In particular, the personality of poet and philosopher Alisher Navoi attracts the attention of world-class scientists. There is always a demand for research on the creator and his creations. In particular, Russian literary critics actively conducted scientific research in this area. The article examines the scientific articles of the turkologist Alexander Konstantinovich Borovkov.

Keywords: Alisher Navoi, Babur, Mirkhand, Borovkov, Bartold, Nikitsky, Bloche, Belen.

O'zbek adabiyoti tarixi juda qadim davrlarga borib taqaladi. Uning boy va qadimiy manbalari dunyo olimlarini ham :mo qiziqtirib kelgan. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi, xususan, Alisher Navoiy shaxsi va ijodi bilan bog'liq ma'lumotlar dunyo olimlari e'tiborini jalb qilgan. Rus adabiyotshunoslarining ko'pchiligi o'zbek mumtoz adabiyotiga tadqiqot obyekti sifatida murojaat qilgan. Shunday olimlardan biri – tilshunos-turkolog, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi (1943-yil), O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, SSSR Fanlar akademiyasi muxbir a'zosi (1958-yil), filologiya fanlari doktori, professor Aleksandr Konstantinovich Borovkov. U 1904-yil Toshkentda, ishchi oilasida tug'ilgan. 1922–1928-yillarda O'rta Osiyo Davlat Universitetining Sharqshunoslik fakultetida tahsil olgan.



A.K.Borovkov ilmiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari dialektologiya (shevashunoslik) va leksikografiya (lug'atshunoslik), o'zbek tili va adabiyoti, Qorachoy-Bolqor tili grammatikasi, O'rta Osiyo xalqlari madaniyatini tadqiq etish bo'lgan. Uning Chig'atoy tilining yozma yodgorliklari sohasidagi tadqiqotlari ham katta ahamiyatga ega.

Toshkentda yashagan davrida u zamonaviy o'zbek ilm-fanining shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Tole Hiraviyning "Badoye' ul-lug'at" (1961) va "XII-XIII asrlardagi O'rta Osiyo tafsiri leksikasi" (1963) manbalari nashr etilishi bilan Borovkov fundamental (bazaviy) eski o'zbek lug'atini yaratishga yo'l ochdi.

U o'zbek tili tadqiqoti uchun juda ko'p ish qildi, jumladan, materialining to'liqligi va bajarilish darajasi jihatidan beqiyos va ko'plab nashrlarni o'zida jamlagan "O'zbekcha-ruscha lug'at"ni qoldirdi.

Olim A.K.Borovkov tadqiqotlarining muhim qismi, shubhasiz, Alisher Navoiy hayoti va faoliyati yuzasidan olib borilgan izlanishlar hisoblanadi. Tadqiqotchi Alisher Navoiy asarlarini o'rganish bilan birga, ijodkor haqidagi ilmiy tadqiqotlar bilan ham tanishgan, ularni batafsil o'rgangan. Ushbu faoliyat mahsuli sifatida bir necha ilmiy maqolalar dunyoga kelgan. Biz o'z maqolamizda Borovkovning Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodiy faoliyatiga :r chiqishlari haqida mulohaza yuritmoqchimiz.

Tadqiqotchi A.K.Borovkovning Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligiga bag'ishlangan maqolasi SSSR Fanlar akademiyasi to'plamida chop etilgan.

Maqola Alisher Navoiyning bolaligi, Husayn Boyqaro bilan do'stligi tasviri bilan boshlanadi. Muallif Temuriylar davlatining Navoiy davridagi holati haqida ham ma'lumot bergan. Shuningdek, muallif Navoiy davridagi Hirot butun O'rta Osiyo uchun madaniy markaz bo'lganini ta'kidlaydi. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy zamonasining bilimdon hamda faylasuf insonlari sifatida o'z atrofiga shoirlar, tarixchilar, rassomlar, me'morlar va xattotlarni birlashtirganlar. Shu bilan birga, Borovkov Alisher Navoiyning qiziqish :rasi kengligini ta'kidlaydi. Olim o'z fikrlarining dalili sifatida Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Mirxondning "Ravzat us-safo" asarlaridan parchalar keltiradi. Chunonchi, Boburning ustod Qulmuhammad, naychi Shayxiy va Husaynning mohir musiqachi, ustod Behzod va Shoh Muzaffarning yaxshi musavvir bo'lib shakllanishida Alisher Navoiyning o'rni beqiyos bo'lgani haqidagi fikrlari katta qiymatga ega. Mirxondning tarixiy asari haqida so'zlarkan, maqola muallifi Alisher Navoiyga berilgan ta'riflarga katta e'tibor qaratadi. Xususan, Mirxond Alisher Navoiyning bayonda aniqlikni saqlashi, muallifning me'yordan ortiq batafsilliklar yoki haddan tashqari qisqalik o'rtasida turishi uchun noo'rin bezaklarsiz, metafora va allegoriyalarni yuklamasdan, boshqa mualliflar yozuvlaridan ko'chirmasdan yozish kerakligiga alohida e'tibor qaratganiga urg'u bergan.

"Alisher Navoiy hayotlik davridayoq o'z zamonining eng old shoiri va olimi sifatida shuhrat qozondi. Uning zamondoshi, yuksak darajali shoir Zahiriddin Muhammad Bobur "Xamsa" ("Beshlik") va Navoiyning she'riy devonlarini ajratib



ko'rsatgan"[8: 108] – deydi maqola muallifi. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur Navoiyning ba'zi asarlarini boshqalariga nisbatan sustroq deya fikr bildiradi hamda ular qatoriga “Munshaot” va “Mezon ul-avzon” asarlarini kiritadi. Bobur Navoiy qalamiga mansub bir qancha yaxshi musiqaga oid asarlarini ham qayd etmay qolmaydi. Shu o'rinda A.Borovkov Navoiyning tarixchisi Davlatshoh Samarqandiy ham “Xamsa” va “Chor devon”ga yuksak baho berganligini aytib o'tadi [8: 108].

Alisher Navoiyning mashhurligi Markaziy Osiyo va undan tashqarida vafotidan keyin ham so'nmadi. Navoiy asarlarining qo'lyozmalari qayta ko'chirildi va ular juda keng tarqaldi; litografiyalar paydo bo'lishi bilan uning asarlarining litografik nashrlari paydo bo'la boshladi. Navoiy ijodiga bo'lgan qiziqish Eron va Turkiyada uning asarlari negizida bir qator lug'atlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Alisher Navoiy ijodining Yevropa tanqidchilari tomonidan baholanishi mavzusini nazardan chetda tutib bo'lmaydi. O'tgan asrning o'rtalarida fransuz sharqshunosi, Fransiyaning Konstantinopoldagi elchixonasi kotibi hamda tarjimoni M. Belen va rus sharqshunosi, Sankt-Peterburg universiteti magistri M. Nikitskiy bir-biridan mustaqil ravishda Alisher Navoiy ijodiga yuksak baho berishdi. Keyingi vaqtda fransuz sharqshunosi Ye. Bloshe va Sharqning mashhur rus tarixchisi akademik V. V. Bartold undan oldin kutilmaganda Alisher Navoiyni o'ziga xoslikdan mahrum taqlidchilar va tarjimonlar toifasiga kiritib, obro'sini to'kishdi.

Bloshe Navoiy asarlariga sharhida yozadi: “... ular tasavvurlarining yorqinligi, ilhomning ilohiy olovi nuri bilan porlamaydi, balki :m fors adabiyoti yilnomalarida ulug'langan shoirlarga sust taqlid bilan cheklangan.” [2: 95]

V. V. Bartoldning 1917-yilda yozgan hukmi ham ancha jiddiy: “Temurlang va uning avlodlari davrida, fors tilida yozishga taqlidlar bo'lganidek, turkiy tilda she'riy asarlar yaratishga urinishlar bo'ldi; bunday shoirlar guruhiga mansub Mir Alisher Konstantinopoldan Tobolskkacha bo'lgan turkiy xalqlarning o'qimishli sinfining sevimli shoiriga aylandi... Lekin, Mir Alisherning she'riyati faqat taqliddan iborat; Mir Alisher turkiy tilning fors tilidan qolishmasligini isbotlashga urindi va buning uchun fors adabiyotidan o'ziga ma'lum bo'lganlarga o'xshash, ba'zan xuddi shu nomlar ostida asarlar yozgan”. [4: 10–11]

Bu mulohazalar nafaqat “tadqiqotchilar Navoiyning fors shoirlariga tobeligini bilishlari bilan bog'liq, balki u qanday shaklda ifodalanganligi ular tomonidan aniqlanmagan”. Bu faqat qisman to'g'ri, masalaning mohiyati shundaki, bu sharhlar turkiy xalqlarning begona madaniyat va ta'sirga to'liq qaramligi haqidagi eski burjua mafkuraviy tushunchaning ifodasidir. Shu sababli, “umumturkiy madaniyat” chin tarixiy sharoitlardan qat'i nazar, “umum eron madaniyati” ga zid qo'yilgan edi.

Temur va temuriyzodalar davrida buyuk davlat bo'lgan Markaziy Osiyo, uning madaniyati – somoniylar davri madaniy merosi hamda Xorazm, Xuroson va Movoraunnahrning “musulmon hududlari” madaniy yutuqlarining sintezidan iborat edi; Navoiy davrida, turgan gapki, diniy mafkura hukmron bo'lganligi,



diniy qobiq ichida badiiy adabiyotda ham sinfiy kurash olib borilganligi, albatta, Alisher Navoiy asarlarida o'z aksini topganligi ham shubhasizdir. O'rta Osiyoda o'sha davrning hukmron adabiy tillari bo'lgan arab va fors tillarida yaratilgan katta adabiyot Alisher Navoiy uchun mezon vazifasini o'tagan.

Shunday bo'lsa-da, adabiyotda allaqachon ommalashgan mavzular bilan chiqqan hollarda ham Alisher Navoiy taqlidchilikdan yiroq bo'ldi. Buyuk Ozarbayjon shoiri Nizomiyning (1141-1203) "Xamsa" siga ("Beshlik") taqlidida va ayniqsa, "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" she'riy romanlarida Alisher Navoiy faqat mashhur syujetlardangina foydalangan. Aslida, Alisher Navoiy bu mavzularga murojaat qilgan yagona shoir emas edi. O'rta asrlar Yevropasida Tristan va Izolda hikoyasi ko'plab she'riy va nasriy qayta ishlanishlarda tarqalgani kabi, Majnun va Laylining arabcha sevgi hikoyasi Sharqda sevimli nazmiy mavzu bo'lgan va u ko'p marta qayta ishlangan. Xusrav Parvizning hikoyasi Shirinniki kabi mashhur bo'lgan.

Alisher Navoiy qalamiga mansub "Farhod va Shirin" romani mutlaqo yangicha qiyofa kasb etdi. Alisher Navoiy Farhod, Xusrav va Shirin obrazlarini yangicha mazmun, yangicha dramatik maqom (ko'rinish)lar bilan yaratib, mohiyatan yangi asar yaratdi. Navoiyning bu asari milliyligi bilan hayratlanarli; bu asar xalq ijodiyotini o'ziga singdirganligi bilan hayratlanarli va Farhod va Shirin haqidagi bir qator xalq afsonalari uning she'riy romanida shunchalik sado berishi bejiz emas. Aynan shular Navoiyning mazkur roman asosida yozilgan yangi, zamonaviy o'zbek "Farhod va Shirin" musiqiy spektaklining ulkan muvaffaqiyatini asoslaydi.

Tadqiqotchi o'z maqolasida Navoiy davrida arab va fors tillari hukmron bo'lganini ta'kidlagan. U birinchilardan bo'lib ona tilini qizg'in himoya qildi. U, ehtimol, zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan biroz soddaroq usulda bo'lsa ham fors tili lug'at boyligiga havolalar qilish orqali ona tilining grammatik shakllarga boy, xilma-xil va moslashuvchan bo'lganligi uchun ona tilining ustunligini isbotlashga intildi. Navoiyning fikricha, fors tili birmuncha yengil bo'lganligi tufayli afzal ko'rilgan.

"Alisher Navoiyni haqli ravishda o'zbek adabiy tilining asoschisi, deyish mumkin va bu til o'zbek adabiy tilining rivojlanishiga negiz bo'la oldi, deya olamiz," [8: 111] – qayd etadi Borovkov.

Olimning fikricha, Alisher Navoiy ijodini chinakam ilmiy va har tomonlama o'rganish 1941 yilda, ushbu buyuk o'zbek yozuvchisi tavalludining besh yuz yilligi munosabati bilan boshlandi. Tarixan o'zbek xalqi Alisher Navoiy madaniy merosining vorisi hisoblanadi.

Sharqshunos A.Borovkovning yana bir maqolasi "Alisher Navoiy hayoti va ijodining o'rganilishi" (Изучение жизни и творчества Алишера Навои) [7: 11–29] deb nomlanib, 1940-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyotida chop etilgan "O'zbek adabiyoti asoschisi" (Родоначальник узбекской литературы) to'plamiga kiritilgan. Maqola Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi arafasida e'lon qilingan.



Maqola ma'rifatparvar va insonparvar Alisher Navoiy hayotlik davridayoq juda mashhur bo'lgani, uning shuhrati vafotidan keyin ham so'nmagani ta'rifi bilan boshlangan. Navoiyning betakror asarlari asrlar davomida badiiy mahorat va chuqur ijodiy tafakkur namunasi bo'lib kelmoqda.

O'z davrining bilimdon kishisi sifatida Alisher Navoiy Samarqand va Hirotidagi Temuriylar davlati madaniy hayoti markazida bo'lgan. Temuriylar davri butun O'rta Osiyo uchun muhim madaniy yuksalish davri bo'lgan. IX–XI asrlarda Balx, Marv, Buxoro va Xorazmda mehnat qilgan Beruniy, Xorazmiy va Ibn Sinolar faoliyati temuriylar davrida davom ettirildi. Ibn Sinoning falsafiy qarashlari, shubhasiz, Alisher Navoiy dunyoqarashida aks etgan.

Ma'lumki, Alisher Navoiy davrida temuriylarning madaniy markazi Samarqanddan Hirotga ko'chgan. Navoiy davrida Hirot shoirlar, olimlar, me'morlar va musiqachilar markazi vazifasini bajargan. Bu haqda Bobur o'zining "Boburnoma" asarida qayd qilib o'tgan. Uning fikricha, Hirotida bir ishni boshlagan odam uni talab darajasida oxiriga yetkazgan. Navoiy barchaga birdek ustozlik va homiylik qilgan.

Alisher Navoiydan meros qolgan asarlar uning ijodiy qiziqishi kengligi, tengsiz iste'dodi, mehnatkashligi va dunyoqarashi yaxlitligini aks ettiradi. 30dan ortiq she'riy va nasriy asarlari ma'lum. Zamondoshlari Bobur, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy va boshqalar uning "Xamsa"si va to'rt devonini birinchi o'ringa qo'yadilar.

Abdurahmon Jomiy Navoiyning dostonlarini Nizomiy va Dehlaviynikidan ustun qo'ygan. Shoirning "Majolis un-nafois", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mezon ul-avzon", "Mahbub ul-qulub" va boshqa asarlari ham zamondoshlari orasida mashhur bo'lgan. "Hech kim onchalik ko'b va xo'b yozgan emas," – aytib o'tgan Bobur. Bu ta'rif umum e'tirofga sazovor bo'lgan. Ammo, ma'lum sabablarga ko'ra, Alisher Navoiy ijodi yetarli darajada o'rganilmagan.

16-asr boshidagi yangi davlat chegaralarining o'rnatilishi til va sheva chegaralarini ham o'zgartirdi. Xurosonda Navoiyning ona tili fors tili bilan bir qatorda adabiy til vazifasini bajarmay qo'ydi. O'zbek xonliklari hukmron sinflari temuriylar madaniyatini unutish va la'natlashga tayyor edilar. Bu holat Navoiy adabiy merosini o'rganishga xayrixoh emasdi. Ammo, Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan qiziqish so'nmagan, o'zbek adabiyoti va adabiy tilining keyingi rivojida uning asarlari ahamiyati katta bo'lgan. O'zbek shoir va yozuvchilarining yangi avlodi Alisher Navoiy asarlari ruhida tarbiyalanishgan va uning an'alarini davom ettirishgan. O'zbekistonda bosmaxonalar paydo bo'lganga qadar Alisher Navoiy asarlari qo'lyozmalari juda ommalashgan, ular shaxsiy kutubxonalarning qimmatli mulki hisoblangan.

Olimning fikricha, Alisher Navoiyning Qo'qon xonligiga ta'siri katta bo'lgan. Xonlikdagi hukmdorlar o'zlarini temuriyzoda hisoblaganlar va she'riyatda ularning an'alarini davom ettirganlar. Shu bilan birga, Alisher Navoiy ijodi tatar, qozoq, turkman adabiyotiga ham ta'sir ko'rsatgan. Volgabo'yi, Qrim, Ozarbayjon, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Sharqiy Turkistonda ham qiziqish katta bo'lgan. Gruzin tiliga ham tarjima qilingan.



Navoiy ijodining chuqur xalqchilligi ijodkorning qahramonlari va sujetining xalq og'zaki ijodida aks etgani bilan dalillanadi. Masalan, xalq tilida Farhod va Shirin haqida turli rivoyatlar mavjud. Sirdaryoning ayrim joylarida Farhodning qo'li tekkan joylar borligi aytiladi. Shuningdek, Layli va Majnun haqida ham rivoyatlar bor. Ikkinchi tomondan, Navoiy o'z asarlarida xalq og'zaki ijodining afsona va rivoyatlaridan foydalangan.

Navoiy asarlari turli xattotlar tomonidan turli yillarda ko'chirilgani sababli asl nusxaning o'zgarishiga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Ayniqsa, "Mahbub ul-qulub" asarida o'zgarishlar ko'p bo'lgan, chunki u eng ommabop asarlardan hisoblanadi, unda Navoiy maishiy va ma'naviy masalalar yuzasidan o'tkir fikrlar bildirgan. Bunda xattotning o'zgartirishi maqsadli deb o'ylaymiz. [7: 16] Navoiy asarlarining bir qismi faqat nodir nashrlarda saqlangan, bir qismi yo'qolgan. Qo'lyozmalarning ko'p qismi she'riy asarlarga to'g'ri keladi. Asrlar davomida dostonlar, she'rlar va "Mahbub ul-qulub" asari kitobxonlar orasida juda mashhur bo'lgan.

"Muhokamat ul-lug'atayn" taqdiri ham qiziq. Unda turkiy tilning go'zalligi isbotlab berilgan. Bu asarning qo'lyozmasi sanoqli. Chunki Navoiy vafotidan keyin ona tili muammosi o'z dolzarbligini yo'qotgan. 19-asrning 2-yarmida unga qiziqish uyg'ongan. 19-asr oxiri, 20-asr boshida turk va qrimtatar tillariga tarjima qilingan. 1917-yil Qo'qonda yangi qo'lyozma asosida chop etilgan. Yevropa olimlari Navoiyning bu asariga filologik nuqtayi nazardan e'tibor qaratishdi. Shuningdek, maqolada Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug'atlar haqida ham ma'lumotlar berilgan. Bu Navoiyga bo'lgan qiziqishni anglatadi.

Ulug' shoir haqidagi ma'lumotlar Yevropa adabiyotiga 17-asrda kiritildi, shoir ijodi bilan jiddiy tanishuv 19-asrning 1-yarmida boshlangan. 1871-yilda fransuz sharqshunosi Katremer o'z xrestomatiyasida 1-marta Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" va "Tarixi muluki Ajam" asarlarini chop ettirdi. Katremer nashri tugullanmay qoldi. Keyinroq Navoiy asarlaridan parchalar turli xrestomatiyalarda, jumladan Berezinning "Turkiy xrestomatiya"sida chop etildi. Yevropa sharqshunoslari shoir asarlariga filologik nuqtayi nazardan yondashganlari bois, Navoiy asarlari universitet til kurslari va xrestomatiyalarga majburiy adabiyot sifatida kiritildi.

Alisher Navoiy haqidagi 1-ilmiy ish sifatida Nikitskiyning magistrlik dissertatsiyasi tilga olinadi. Unda Davlatshoh Samarqandiy va Xondamir asarlaridan manba sifatida unumli foydalanilgan. Besh yildan so'ng fransuz sharqshunosi M.Belen maydonga chiqdi. Ammo bu ikki ijodkor Navoiy ijodini yuzaki tadqiq qilishgan. Ular shoir ijodi va faoliyatida yagona g'oyaning mavjudligi, asarlari tuzilishi, ularning fors adabiyoti bilan bog'liqligi masalalariga to'xtalishmagan. M.Belen uchun Navoiy o'z davrining mutafakkiri va Xusrav Dehlaviy, Nizomi, Jomiylarning tarjimoni hisoblanadi. Shu bilan birga, Belen Navoiyning tarix, mantiq, falsafa, din, tasavvuf, she'riyat, musiqa sohalariga qiziqishini ta'kidlaydi.

Navoiyning badiiy asarlari fors adabiyotidan o'girilgan, tarixiy-badiiy asarlari esa katta qiymatga ega, degan xato tasavvur paydo bo'ladi. Bu tushuncha



bilan Alisher Navoiy ijodini munosib baholash mumkin emas. M. Belen "Mahbub ul-qulub" asari yuzasidan maxsus tadqiqot olib borgan, umumlashtirishdan chekingan hamda "sharqona axloq" masalasini ta'riflash bilan kifoyalangan.

Keyingi olimlar tadqiqotida ham bunday ikkilanishlar uchrab turadi. Lekin ona tilining rivojlanishi masalasida Navoiyning fidoyiligi :mo ta'kidlangan. She'riy asarlari haqida gap borganda, hech qanday asosga ega bo'lmagan holda ularning original emasligini aytishadi. Bunday fikrning keng tarqalishiga sabab – dostonlar va she'rlar qat'iy shakl va an'analar asosida yozilganligi hamda tadqiqotchilar tomonidan qiyosiy-tanqidiy o'rganish amalga oshirilmaganligi. Birgina tuyuq janrini ko'rib chiqsak, bunday so'z o'yini fors adabiyotida yo'qligiga amin bo'lamiz.

Maqolada Alisher Navoiyning yolg'izligi va uning Husayn Boyqaro bilan munosabati haqida turli olimlarning fikrlari berilgan. M.Nikitskiy va F.Belen ishlari ancha vaqtgacha Alisher Navoiy haqidagi yagona umumiy tadqiqot sifatida qoldi. Keyingi ishlarda bu tadqiqotlardan nusxa ko'chirish holatlari uchradi.

Burjua ilmi jahon adabiyotini faqat Yevropa adabiyoti bilan cheklaydi. Sharq adabiyotini o'rganish tizimsiz holda kechgan. Burjua sharqshunosligiga imperialistik ta'sirning kuchayishi tadqiqotlar :rasini yanada toraytiradi.

Mashhur turkolog olimlardan biri "hamma joyda" va har :m turkiylar madaniyat sohasida taqlidchi bo'lishgan" deb fikr bildiradi (bu olim kimligini maqola muallifi yozmagan). Bu fikr ma'ruzalarda aytib o'tilgan. Bu yanglish ma'lumot barcha turkiy adabiyot vakillari qatorida Alisher Navoiyga ham tegishli bo'lgan. Mashhur olim V.V.Bartold ham shu fikrda bo'lgan va o'z tadqiqotlarida buni ko'p marta ta'kidlagan. Fransuz sharqshunosi El.Blode ham shunday fikrni bildiradi. Ular asarlarni to'liq tadqiq qilmasdan bu fikrlarni bildirganlar. [7: 20]

Maqolada Alisher Navoiyning davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga to'xtab o'tiladi. To'xtasin Jalolov "Xamsa" haqidagi maqolasida Alisher Navoiy Nizomiy va Dehlaviy asarlaridagi Bahrom obrazini tanqid qilganiga e'tibor qaratadi. Chunki Navoiy :m maishatda, mast holda yuradigan odam haqiqiy sevgiga qodir emas deb hisoblaydi. "Farhod va Shirin" dostonidagi Xusrav timsoli ham avvalgi "Xamsa"lardagidan farq qiladi.

Alisher Navoiy asarlarining originalligi haqiqiy tadqiqotlar boshlangandan so'ng hech qanday shubha uyg'otmay qo'ydi. Professor A.A.Semyonov o'z qisqa ocherkida buni buni alohida ta'kidlab o'tdi. Beshlik tarkibidagi dostonlarning soni, nomlanishi, voqealar rivojidagi o'xshashlik ham uning mustaqil asarligiga shubha uyg'otolmaydi, chunki ijodkor unga o'ziga xos tarzda yondashgan. Hatto "Lison ut-tayr" dostonida ham Fariduddin Attorga ergashish bo'lsa ham, original nuqtalar Navoiy asarini ajratib turadi.

Alisher Navoiy dostonlarning o'ziga xos xususiyati – ularning xalqchilligi. Dostonlardagi sarguzasht-fantastika elementlari xalq ijodiyotiga yaqinlashtiradi. Xalq og'zaki ijodiga yaqinlikni tuyuqlar va hikmatli so'zlar misolida Hodi Zarifov ham ta'kidlab o'tgan.



“Alisher Navoiyning lirik she'rlari forsiy adabiyotga ergashib yozilganligi haqidagi fikrni shoir va adabiyotshunos, “Chor devon”ni nashrga tayyorlagan Uyg'un tadqiqoti rad etadi” [7: 29] – deya fikr bildiradi olim A.Borovkov.

Alisher Navoiy lirikasi faqat gul va bulbul sevgisiga bag'ishlangan emas. Lirik she'rlar va boshqa asarlarda ham insonga muhabbat, uni qadrlash, yolg'onchilik, ikkiyuzlamachilik va mutaassiblikka qarshi nafratni ko'ramiz.

Shuningdek, tadqiqotchi Alisher Navoiyning tasavvufga munosabati haqidagi savol juda murakkab deb hisoblaydi, chunki maqola yozilgan vaqtda ilmiy farazlarga ko'ra feodalizm davrida din hukmron mafkura bo'lgan va ko'pincha yangi siyosiy va madaniy g'oyalar din qobig'ida ifodalangan degan fikr bo'lgan. Sharqdagi tasavvuf turli sinflar siyosiy kurashida asosiy rolni o'ynadi va she'riyat taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazgan deb qabul qilingan. Shuning uchun Alisher Navoiyning tasavvufga munosabati mustaqil muammo hisoblanadi. Nima bo'lganda ham, Alisher Navoiy she'riyati shoir obrazlarida, qiyos va metaforalarida yashirin tasavvufiy sir izlash uchun o'ta insoniy, o'ta hayotiydir.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Aleksandr Borovkov o'z ilmiy faoliyatida Sharq mumtoz adabiyoti masalasiga juda jiddiy e'tibor bergan. Bu borada e'lon qilingan ko'plab manbalar bilan tanishgan. Olimning maqolalarida har bir fikr ilmiy jihatdan asoslangan, mavzuga :r adabiyotlardan dalillar keltirilgan holda xolis xulosalar berilgan. Tadqiqotchi ishlarida o'zi yashagan davr ilmiy muhitining manzarasi yaqqol ko'rinib turadi. Alisher Navoiy shaxsi va asarlari bo'yicha berilgan xulosalar ham aniq faktlarga tayangan holda, xolislik bilan chiqarilgan. Olim yashagan davrdagi dinga va tasavvufga bo'lgan munosabat tufayli ba'zi xulosalar bugungi ilmiy farazlarga mos kelmasligi mumkin. Ularni solishtirish, qiyoslash hamda zarur yechimlarni topish bugungi kun adabiyotshunoslarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu masalaga jiddiy ahamiyat berish zarur deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati. – Toshkent, Sharq, 2010. – 528 b.
2. Les enluminures des manuscrits orientaux turcs, arabes, persans de la Bibliothéque Rationale par Ed. Blochet. Paris, 1926. – 163 c.
3. Sirojiddinov Sh. va b. Navoiyshunoslik. Darslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019. – 520b.
4. Бартольд В. Из прошлого турок. Отд. оттиск, П гр., 1917. – 16 с.
5. Навоий замондошлари хотирасида. – Тошкент: Фафур Фулом нашриёти, 1985. – 224б.
6. Навоийнинг ижод олами. Мақолалар тўплами. – Тошкент: Фан, 2001. – 200б.
7. Родоначальник узбекской литературы. Сборник статей об Алишере Навои. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1940. – 215 с.
8. Советское востоковедение. I. // М., Л.: 1940. – 268 с.
9. Эркинов А. Навоийни англаш сари. – Анқара: Аксағ, 2021.



V SHU'BA. MADANIY HAMKORLIKNING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI: TIL VA ADABIYOT	
Бердин Азат Тагирович. ОБЩЕЕ И ОСОБЕННОЕ В ГЕНЕЗИСЕ УММЫ В ТЮРКСКИХ РЕСПУБЛИКАХ РОССИИ: ОПЫТ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ИСТОРИЧЕСКИХ СМЫСЛОВ	375
Gahramanov Sabuhi Adil oglu. THE AIM OF AZERBAIJANISM AND DISSIDENTISM IN KHALIL RZA ULUTURK'S ARTISTIC CREATIVITY	388
Гайфуллина Миляуша Фаниловна, Абдуллина Лилия Бакировна. ПОЭТИКА ДОМА В РАННЕЙ ПРОЗЕ Л.Н. ТОЛСТОГО (НА МАТЕРИАЛЕ АВТОБИОГРАФИЧЕСКОЙ ТРИЛОГИИ «ДЕТСТВО», «ОТРОЧЕСТВО», «ЮНОСТЬ»)	396
Gözde GÜNGÖR. ABDULLA KAHNAR'IN MAHALLE ADLI HİKÂYESİNDE İDEOLOJİK ÖZNELEŞME SÜRECİ	405
Həsənova Könül Nəriman qızı. POEZİYANIN ÇOXNÖQTƏ İLƏ İŞARƏLƏN LƏKSİK VAHİDLƏRİNDƏ FORMAL QƏNAƏTİN ANLAMA MODELƏRİ	412
Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna. ALEKSANDR BOROVKOV – ALISHER NAVOIY TADQIQOTCHISI SIFATIDA	419
Ebru KABAKÇI. TÜRKİYE'DE EĞİTİM ALANINDA YAZILAN LİSANSÜSTÜ TEZLERDE BAĞIMSIZ TÜRK CUMHURİYETLERİNE YÖNELİK İLGİNİN SEYRİ (2000–2025): AKADEMİK PERSPEKTİFTEN KÜLTÜREL BÜTÜNLEŞMEYE BİR BAKIŞ	427
Кожоева Гулжамал Жайлообаевна. ХИАЗМДУУ КАЙТАЛООЛОРДУН ӨЗГӨЧӨЛҮКТӨРҮ	439
Musayev Dəyanət Musa oğlu. BİRİNCİ TÜRKOLJİ QURULTAY VƏ TARİXİ MİSSİYASI	446
Mirzəzadə Rəqsanə. BİRİNCİ TÜRKOLJİ QURULTAYDA İŞTİRAK EDƏN ÖZBƏK NÜMAYƏNDƏLƏRİ	456
Гулноз Сатторова. МУСТАЙ КАРИМ: ШАХС ВА ИЖОД УЙЃУНЛИГИ	461
NərmİN Rəhimova. RƏŞAD NURİ GÜNTƏKİNİN “ÇALIKUŞU” ƏSƏRİNİN TƏHLİLİ	465
Юсупов Ильшат Фаритович. ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ ФАКТОРЫ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ЛАНДШАФТА НА МАТЕРИАЛЕ ЗАУРАЛЬСКИХ РАЙОНОВ БАШКОРТОСТАНА	471
Р.А. БАЗАРБАЕВА. КӨРКЕМ МƏТІНДІ ТАЛДАУ АРҚЫЛЫ ОҚУШЫЛАРДЫҢ КРЕАТИВТІ КОМПЕТЕНЦИЯСЫН ДАМУ	478
Inogamova Nargiza Shavkatovna. LINGVOKULTUREMALARNING TIL VA ADABIYOT TA'LIMI JARAYONIDAGI ROLI XUSUSIDA	482
Ranjiyeva Zilola. TILNING PARAMEOLOGIK FONDI	489
Musayeva Sarvinoz. YOZMA NUTQDA IMLOVIY XATOLAR: SABAB VA OQIBATLARI	490
Луана Саттарова, Фания Сулейманова. ПРОБЛЕМА «НЕВЫРАЗИМОГО» В ДНЕВНИКАХ 50-Х ГГ.	493

